



The role of curses in the works of poets

Zumrad MASHARIPOVA¹

Urgench State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received August 2024

Received in revised form

10 September 2024

Accepted 25 September 2024

Available online

25 October 2024

Keywords:

God,
cursing,
praise,
death,
snake,
cursing...

ABSTRACT

There are only a few rare examples of folk oral creativity that have been passed down through the centuries, serving as a mirror of our national traditions. During their school years, individuals are exposed to fairy tales, songs performed in class or at public gatherings, proverbs, riddles, narratives, and epics, while also engaging in children's games. These experiences allow them to mature in harmony with their creativity. Among the folklore traditions mentioned above, there is also applause and cursing, which creators of each era have adapted and used according to their skills and artistry. In this article, we explore the skill of modern Uzbek poets in utilizing folklore traditions, particularly the role of the cursing genre in their creative works.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss4/S-pp241-247>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Shoiralar ijodida qarg'ishlarning tutgan o'рни

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

Xudo,
qarg'ish,
olqish,
o'lim,
ilon,
so'kish...

Milliy urf-odatlarimiz ko'zgusi bo'lgan asrdan asrga o'tib kelayotgan xalq og'zaki ijodining nodir na'munlari talaygina. Inson borki, onasi tomonidan aytilgan allalarni, ertaklarni, dars mashg'ulotida, yoki ommaviy yig'inlarda ijro qilingan qo'shiqlarni, o'quvchilik davrida maqol va topishmoqlarni, rivoyat va dostonlarni tinglab, bolalar o'yinlarini o'ynab xalq og'zaki ijodi bilan hamohang tarzda kamol topadi. Biz yuqorida ta'kidlagan folklor an'analari qatorida olqish va qarg'ishlar ham borki, har bir davr ijodkori bu janrlardan o'z mahoratiga muvofiq foydalanib kelmoqda.

Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek shoiralarining folklor an'alaridan foydalanish mahorati, xususan ijodiy asarlarida qarg'ish janrining tutgan o'рни xususida mulohaza yuritdik.

¹ Independent Researcher, Urgench State University. E-mail: Zumradmasharipova42@mail.com

Роль проклятий в произведениях поэтов

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

Бог,
проклятие,
хвала,
смерть,
змей,
проклятие.

Лишь немногие редкие образцы народного устного творчества передаются из поколения в поколение и становятся зеркалом наших национальных традиций. Человек, который в школьные годы слушает сказки, песни, исполняемые в классе или на общественных мероприятиях, знакомится с пословицами, загадками, рассказами и былинами, а также участвует в детских играх, растет в гармонии с этим творческим наследием.

Среди фольклорных традиций, упомянутых выше, существуют также аплодисменты и ругательства, которые создатели каждого исторического периода использовали в соответствии со своим мастерством. В данной статье мы рассмотрели умение современных узбекских поэтов использовать фольклорные традиции, в частности, роль матерного жанра в их творчестве.

Qarg'ish qalbdan chiqadi, degan naql bor xalq orasida. Shunday ekan qarg'ishlarda aytuvchining dilidagi tuyg'u aks etadi. Har bir ijodkor obraz ichki tuyg'usini ochib berishda ushbu janr na'munlaridan ham badiiy unsur sifatida foydalanadi. Shoir va yozuvchilarimiz o'z ijodiy asarlarida qarg'ish janridan mahorat bilan foydalanib kelmoqdalar. Mazkur maqolamizda faqat ayollar she'riyatida qarg'ishlarning ifodalanishiniga to'xtaldik.

H. Ahmedova she'rlarida mifologik qarg'ishlar ham qo'llaniladi:

*Senga olib keldim yillar qa'ridan,
Bir tomchi shodligu siniq tabassum.
Seni aldamadim, aldagan bo'lsam,
O'lgan muhabbatning arvohi ursin.*

She'riyatimizda mifologik qarg'ishlar juda kam uchraydi. Yuqorida keltirilgan "arvoh" ursin" qarg'ishi unga misoldir.

Z. Mo'minova qarg'ish janriga murojaat qilar ekan, bolalik xotiralarini shunday eslaydi. "Momom nuqul: "Bu dunyoda hech kim ota qarg'ishini olmasin, erkak qarg'ishiga duchor bo'lmasin", – deb yurardi. Shoir "aqlini taniganidan buyon erkakalar qarg'amaydilar", deb o'ylaydi. Sababi, u tug'ilib o'sgan qishlog'i erkaklarining qarg'aganini eshitmasdan ulg'ayadi. Keyinchalik: "Er kishining qarg'ishi-o'q", – deb eshitadi. Bu borada unga har xil voqealarni gapirib berishadi. Shoir Samarqand viloyatining Narpay tumanida tug'ilib, o'sgan. Aynan shu hududda bir bahshining cho'pon oshnasi bo'lar ekan. Cho'ponning Qoratovda kulbasi va ko'zlari chaqchaygan, tilidan nuqul zahar tomuvchi bepust ayoli bor ekan. Shu tufayli cho'ponning kulbasiga hech kim kirmas, tomida qushlar aylanmas, qizg'aldoqlar ko'karmas ekan. Bu kulba atrofida faqat uzun va yo'g'on ilonlar izlari ko'zga tashlanar, bechora cho'pon uyiga kelishga qo'rqar, chunki uzoqdan ko'rinishi bilan xotini qarg'ashga tushar ekan. Z. Mo'minova bu jarayonlarni nihoyatda mahorat bilan qalamga oladi:

*Hah sening boshingga
Osmon qulasin.
Ortingdan bir umr
Kulfat quvlasin,
O'sha qo'ylar bilan
Bir tunda qotgin.
O'lguncha qo'limga
Termilib yotgin.
Qirchingdan qirqib,
Azob chuvlasin.
Bo'rilar go'shtingni
Chaynab uvlasin.*

Qarg'ishlar mustaqil janr bo'lib, qisqa va ixcham jumlada keng ma'noni ifoda etadi. Hamda ularning aksariyatida fikr ko'chma ma'noda, metforik usulda bayon etiladi. Aytaylik, xalq qarg'ishlarning ko'plab obrazli ifodalarini yaratgan. Masalan, "qirchingdan qirqil" qarg'ishi kishiga o'lim tilagan hollarda qo'llaniladi. Z. Mo'minova bir she'rning o'zida qator qarg'ishlarni ketiradi. "Boshingga osmon qulasin", "kulfat quvlasin", "bir tunda qotgin", "o'lguncha qo'limga termilib yot", "qirchingdan qirqil", "azob chuvlasin", bo'rilar go'shtingni chaynasin". Bularning bari kishini junbushga soladiga qarg'ishlar. Cho'pon ayolining qarg'anishlariga bir og'iz gap qaytarmas, qarg'amas ekan. Chunki er kishining qarg'ishi yomon bo'lishini yaxshi bilar, mung'ayib kelib, mung'ayib ketar dardini faqat Qoratovga aytar ekan. Bir kun cho'pon kulbasiga qaytishdan cho'chib, qumga ko'milib uxlab qoladi, yarim tun qattiq og'riqdan cho'chib uyg'onib ketadi. Atrofqa qarasa, bir chayon qumga kirib ketayotganini ko'radi. Cho'pon zaharni so'ra-so'ra ko'karib ketadi. Tinka madori qurib, shunday deydi:

*Karvonman toabad
Kazzob taladi.
Qozonman, to abad
Och it yaladi.
Bag'rimga qum to'lib,
Tig'lab aytaman.
Men erman, yer bo'lib,
Yig'lab aytaman:
Hah, mening qo'limdan
Chayon chaqdiya,
Hah, sening tilingdan
Ilon chaqsina.*

Z. Mo'minova eshitganlaridan ta'sirlanib, she'r ostiga qarg'isharni yashiradi. "kazzob taladi", "och it yaladi", "men erman, yer bo'lib" bu birikmalar ham aslida qarg'ish. Kazzob talasa, inson bor-budidan ayriladi. Vaholanki, hech kim yig'ganini indamasdan topshirib ketavermaydi. Qo'lidan hech narsa kelmagan taqdirda qarg'ishdan foydalanadi. "Qozonman to abad och it yaladi" bu satrlar orqali cho'pon yuvilmagan qozonga o'xshatilmoqda. Yuvilmagan qozonni jonivorlar yalab tozalagani kabi, cho'pon ham

qarovsiz ustuvoshi kir holatda yurganini tasvirlaydi. Xalqimizda “Er bo’lmay qaro yer bo’l” qarg’ishi boshqa qarg’ishlarga nisbatan ko’proq ishlatiladi. Cho’ponning ayolining kasridan qaro yer bo’lganini, shoira cho’pon tilidan o’z maromida keltiradi. Z. Mo’minova er kishining qarg’ishi o’q bo’lishini, cho’pon voqeasi asosida ochib beradi. Voqea shunday yakunlanadi. Cho’pon bechora o’z qarg’ishidan o’zi qo’rqib ketadi va kulbasi tomon chopadi. Kulbasi tomonga ketgan ilon izini ko’radi. Ne ko’z bilan ko’rsinki, yiqilib yotgan xotinini katta qora ilon tilidan chaqib turgan ekan. Shoira Narpaylik bahshidan eshitgan xotiralarini quydagicha tasvirlaydi. “Hah bolalarima dunyoda hech bola ota qarg’ishiga, mardum el, ayol er qarg’ishiga uchramasin”, deb qo’yar ekan. Tadqiqotimiz yuzasidan shoira bilan o’tkazilgan uchrashuvlarda uning bolalik kezlaridan xalq afsonalari, ertak va dostonlarini buvisi tilidan, atrofdagi bahshilar tilidan tinglab ulg’ayganiga oydinlik kiritdik. Mana shunday voqealardan yana biriga misol keltiramiz.

Z. Mo’minova tug’ilib o’sgan qishlog’idagi insonlar bilan a’loqador yang-yangi afsonalar yaratadi va ana shu afsonalar bag’riga qarg’ishlarni joylaydi. Uning aytishicha, qishlog’ida “Xanjar buva” ismli inson yashagan. U insonni qishloqda Xanjar aravakash deb atashgan. Sababi bu inson qishloqning aravakashi. Qishloq ahlining og’irini yengili qilib yuradigan bu inson qishloq bolalarini olis hududga maktabga ham tashiydi. O’n qiz, bitta o’g’il aravakashning aravasida yo’lovchi. Ularning ichida Z. Mo’minova ham bor. Xanjar buva urushda qatnashgan va urushda portlash natijasida qulagan imorat ostida qolgan. O’sha yerlik bir nemis qiz uni vayrona ostida olib chiqadi. Nemis qizi Xanjar buvani sevib qoladi. Gapirolmay tildan qolgan, qiyofasi oq sariq bo’lgan o’zbek yigitini nemis qizi davolab oyoqqa turg’izadi. Qiz so’raganlarga Xanjar buvani qarindoshim deb tanishtiradi, Xanjar buvani o’limdan asrab qoladi. Urush tugaganidan keyin Xanjar buva nemis qiziga uylanib, bir o’g’il farzandli bo’ladi. Ammo vataniga nemis xotini va bolasini olib kelishga ruxsat bo’lmaydi. Xujjatbozlik tufayli ajrashishga majbur bo’ladi. Buyoqda Xanjar buvani uylantirib qo’yishsalar ham farzandli bo’lmaydi. Bir kuni Z. Mo’minovani buvisi yoniga chaqiradi. Shoira bu voqealarni chiroyli tarzda qalamga oladi. “Momom bir kuni mana sen ham kattagina bo’lib qolding. Menga anavi nemis Gitlarning otasini otini bilib kel”- dedi. “Uni otasini otini nima qilasiz, momo?”- desam, “Qarg’aganimda tog’ridan-to’g’ri borib tegishi uchun”-dedi. Bilib kelib aytdim: “Momojon uning otasining oti Adolf ekan, yani Adolf gitler”- deb qarg’ayvering. Momom Xanjar buvaning ayanchli qismati uchun ham o’sha nemislarni aybdor deb , tesha tegmagan qarg’ishlarni olis Germaniya tomon yo’llaydi: “Uying kuygur, o’lmay o’lgur Adolf Hitler axir bu bechoralarda nima ayb? Aybi bir-birini sevganimi? Bir-birini sevganimi? Bir bechora to’tiqushning bolasidek buyoqda, u bechora ayol nemis-o’zbek aralsh bolasi bilan uyoqda ne kunlarni ko’rmadi?

Xalq orasida “ming la’nat”, “padaringga la’nat” qarg’ishi paydo bo’lgan. Bir qaraganda “la’nat” so’zi so’kishday tuyiladi. Biroq so’kish qarg’ishga teng kelolmaydi. So’kish inson shaxsini xaqoratlashga, kamsitishga qaratiladi. Qarg’ish esa insonga yomonlik, o’lim tilash uchun aytiladi. Ular aynan shu jihatlari bilan o’zaro farqlanadi. Z. Mo’minovaning quyida keltiriladigan dostonida “padaringga ming la’nat”, – haqorat emas, qarg’ishdir:

41-yil urushni boshlagan Adolf Hitler, padaringga 41 million marta la’nat!” “Momojon, ular o’lib ketgan, qarg’ishlaringiz shamolga uchadi”, –desak, qaysar kampir: “Sizlar bilmaysizlar sho’rlikina Xanjarni qancha vaqt nemis josusi deb nazorat ostiga olishdi. Nihoyat aravachasidan boshqa hech vaqosi yo’q bechorani tinch qo’yishdi” Muhit insonni rivojlantiradi. Buning bir na’munasini Z. Mo’minova misolida ko’rdik, desak mubolag’a bo’lmaydi.

G. Asqarovaning aynan “Qarg’ish” sarlavhali she’rida ayol muhabbatini xor qilgan yigit lirik qahramonning g’azabiga duchor bo’ladi. Sevgisiga munosib e’zoz topmagan qahramon qadri va g’ururi poymol bo’lganidan afsuslanadi va Xudoga iltijo qiladi:

So’ng volalar qildim Xudoga: Sochlarini oqartsin qirov! Chimlar bossin ostonasini, Mendan keyin sevmasin birov!

“Mendan keyin sevmasin birov!” qarg’ishi qo’llanib, oddiy folklorizm yuzaga keltirilgan. Lirik qahramon o’zi erisha olmagan muhabbatini o’zgaga ham ravo ko’rmaydi. Xudoga iltijo qilib g’am, hasratdan suyganining sochlarini oqarishini so’raydi.

Nolalari iztirobli, his-tuyg’ularini o’zgacha isyon bilan qog’ozga to’kadigan Z.Mirzoning “Iloho qo’llaring” deb boshlanuvchi she’rida esa boshdin oxir qarg’ish janriga murojaat qilganini kuzatamiz.

Duobad ayladim tanim xor bo’lsin,

Ruhim Xudo bo’lsin,

Xudo yor bo’lsin.

Lirik qahramon “vujudim xor bo’lsin” deb o’zini qarg’amoqda. Tasavvuf dunyosida vujudni xor qilish evaziga ruh Olloh diydoriga Musharraf bo’lishi mumkin deb hisoblaydi va oliy ruhga qo’shilishni orzu qiladi. Lirik qahramon vujud xorligi evaziga Olloh diydoriga Musharraf bo’lishni orzu qilmoqda. Bu o’rinda nafsni tiyish nazarda tutilganki, lirik qahramon o’zini alqamoqda. Ammo bu holat vujudga bitmas-tuganmas azob keltirishi mumkin.

Aksariyat hollarda ma’shuqa-olloh obrazi, demak, uning uchun chekilgan sitam asli rohatdir.

Z. Mirzoning lirik qahramoni o’zini duo qilar ekan, shu duoni yoriga ham ravo ko’radi:

Yoring Xudo bo’lsin,

Xudo yor bo’lsin!

Xalqimizda yaqin kishilarini biror safarga, yoki ishga kuzatish, xayrlashish jarayonida “Xudo yor bo’lsin” deya bir-birini duo qilish udumi bor. Z. Mirzoning misralari mohiyatiga e’tibor qaratsak, unda ezgu tilakdan ko’ra yomon niyat tilanayotgani oydinlashadi. “Xudo yor bo’lsin” aslida olqish bu o’rinda she’r talabi bilan inversiyaga uchragandek. Yoki bu tasodif emas, ataylab qilinib, shu yo’l bilan olqish qarg’ishga aylantirilmoqda. Lirik qahramon oshiqqa “ollohdan o’zga yoring bo’lmasin”, deya yolg’izlik azobini tilamoqda. Z. Mirzo so’ngi banddagi qaytariqda “Yorim Xudo bo’lsin”, deyish bilan muhabbati oshiq uchun yagona, qudratli bo’lishini tilaydi. Bu esa mohiyatida qarg’ish yotgan olqishdir.

Lirik qahramonning ishqiq oshiq uchun yagona bo’lib qolsa, oshiq takror sevolmaydi. Ma’shuqa xiyonatkor oshiqqa qayrilib boqishni, kechirishni istamaydi. Bu o’rinda duo qarg’ishga aylanadi. Oxirgi va birinchi baytdagi misralar bir-birini to’ldirib, fikrni yanada kuchaytiradi:

Iloho qo’llaring ishqqa zor bo’lsin!

Z. Mirzo duoday ko’ringan olqish bag’riga qarg’ishlarini yashirishda davom etmoqda:

Osmon bo’l, zavoling tuproq ko’rmasin.

Shoira zavoling tuproqni ko'rmasin deyish orqali oshiqni qarg'amoqda. Axir har qanday osmon bo'lgan inson ham bir kun kelib, zavol topishi aniqku. Zavol topgan inson tuproq bag'riga qo'yilishi kunday ravshan. Odamlar orasida go'r qabul qilmagan insonlar borligi to'g'risida afsonalar eshitganmiz, yoki ustiga bir siqim qum tashlanmay, quzg'unlarga yem bo'lgan insonlar haqida ham eshitganmiz. Lirik qahramon oshiqqa nihoyatda dahshatli qarg'ishni ravo ko'rmoqda. Yuqoridagi satrlar qarg'ish bo'lmaganida, keyingi satrlar bu tarzda yakun topmas edi.

*Chinor bo'l shoxingga bir zog' qo'nmasin,
Shamol bo'l kimsan deb birov so'rmasin.*

Darxtilar ichida chinor uzoq umr ko'rishini yaxshi bilamiz. Ming soya bergani bilan beqadr. Chunki meva tugmaydi. Lirik qahramon oshiqqa uzoq umr tilayapti, lekin biror zog'gada kerak bo'lmagan azobli umr tilamoqda. Mazkur she'r orqali olqishning qarg'ishga, qarg'ishning olqishga o'tishi mumkinligini kuzatdik. Bu hol she'riyat imkoniyatlari orqali yuzaga kelgan, aslida, olqish va qarg'ish so'z sehriga asoslanuvchi mustaqil janrlardir.

Olqishga zid ravishda qarg'ish yovuzlikka qaratiladi, insonga boshqa biror yomonlikni ravo ko'radi, yoki o'lim tilaydi. O'zbek tilining izohli lug'atida qarg'amoq birovga yomonlik tilamoq, yoki baxtsizlik tilamoq, o'lim tilab koyimoq tarzida izohlanadi.

G. Asqarovaning quyidagi she'rida ham "Xudo yor bo'lsin" olqishi "Senga yor bo'lsin Xudo" tarzida qo'llanilib, she'r talabi bilan lirik qahramon kechinmalari inversiya qilingan.

*Na zorim bor, na zo'rim,
Yor bo'lmasim alvido!
Sen yoringga yor bo'lgin,
Senga yor bo'lsin Xudo!*

She'rda "Zorim boru zo'rim yo'q" xalq maqoli "Na zorim bor na zo'rim" tarzida ifodalangan. "Na zorim bor, na zo'rim" misralarida (tazod) san'ati qo'llanilgan. Yor so'zi turli ma'nolarada keltirilib (alletiratsiya) hosil bo'lgan. Lirik qahramon satrlarining mohiyatiga razm solsak, bu o'rinda ham ezgu tilakdan ko'ra yomon niyat bildirayotgani oydinlashadi. Lirik qahramon ham shu yo'l bilan olqishni qarg'ishga aylantirmoqda. G. Asqarova ham o'z izhorlari zamirida suyganiga "senga yor bo'lsin Xudo", deya unga yolg'izlik azobini tilayotir. Uchinchi misrada "sen yoringga yor bo'lgin", deyish bilan yoriga baxt tilaydi, bu olqish bo'lib ko'rinadi. Aslida buning ham mohiyatida qarg'ish yotibdi. Ko'rinadiki, she'rdagi duo qarg'ishga aylandi.

Xaqlimizda "Xudodan topgin", "Xudoga soldim", "Xudoga topshirdim", "Jazoyingni Xudo bersin" degan norozilikni ifodalovchi jumlarlar borki, ularning mohiyatida qarg'ish belgilari ko'zga tashalanadi.

*Eshiklarni yig'lab yopdim,
Eshigingni yopgin, yor.
Men-ku seni sevib topdim,
Sen Xudodan topgin yor.*

Z. Mo‘minovanning quydagi she‘rida “Xudodan top” qarg‘ishi gunohkorni ollohga topshiradi, ollohga topshirilgan qarg‘ishning qudrati balanddir. Yetkazilgan aziyat evaziga bandasiga nisbatan jazolash ollohdan so‘ralsa, olloh gunohkorni jazolamay qo‘ymaydi. Insonlardagi ollohga bo‘lgan bu ishonch islomiy tafakkur mevasi sifatida shakllangan. Dinimizning yovuzlik, nafrat, isyon kabi illatlarga qarshi kurashi sifatida yuzaga kelgan tarbiyasi asrlar osha, ruhiyatimizga, tasavvurlarimizga singib ketgan qarg‘anish xalq qarg‘ishlariga xos ifoda usuli she‘riyatimizda ham o‘z aksini ko‘rsatib kelmoqda. She‘riyat aslida ezgulik targ‘ibotchisi, alam, isyon, yovuzlik kuchaygan damlardagina qarg‘anishga majbur qiladi. Mifologik tasavvurlarga ko‘ra Xudoga solib qarg‘algan insonning u dunyosi ham, bu dunyosi ham xor bo‘ladi. Xalq qo‘shig‘idagi dardni yanada kuchliroq ifodalagan shoira o‘z mahoratini yana bir bor namoyon eta olgan. Toki yer yuzida o‘zbek xalqi bor ekan, ana shunday go‘zal, betakror ijod namunalariga asos bo‘luvchi juda boy xalq og‘zaki ijodi ko‘plab ijodkorlarga ilhom baxsh etishda davom etaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Halima Ahmedova. “Afsun”. A. Navoiy nomidagi Milliy kutubxona nashriyoti. Toshkent. 2019. 12-bet.
2. Zulfiya Mo‘minova. “Bolaga kitob bering”.
3. Zebo Mirzo “Tun malikasi”.
4. Guljamol Asqarova. “Erkalik imtiyozi” G‘. G‘ulom nashriyoti. Toshkent: – 2012. 134-bet.